



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI

NAMANGAN VILOYATI XALQ TALIMI  
BOSHQARMASI

Mingbuloq tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli  
6-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

***SAYDULLAYEVA DILSHODAning***

***“2-sinf matematika darslarida “100 ichida  
qo`shish va ayirishga doir misol va  
masalalar yechish” mavzusiga***

# DARS ISHLANMASI



## Mingbuloq tumani

**Mavzu:** *2-sinf matematika darslarida 100 ichida qo`shish va ayirishga doir misol va masalalar yechish*

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalangan holda 2-sinf matematika darslikdagi 57-dan 63-gacha bo'lgan masala va misollarni mustaqil fikrlagan holda yechishga o'rgatish. O'quvchilarni qo'shish va ayirish amallariga doir mustaqil fikrlash, og'zaki hisoblash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning jixozi:** 2-sinf matematika darsligidagi 57,60,61-misol va masalalarga oid ko'rgazmali qurol, darslikdagi 58,59,62,63-misol va masalalarga oid tarqatmali materiallar, o'quvchilarni rag'batlantirish uchun kartochkalar.

**Darsning tarbiyaviy vazifasi:** o'quvchilarni ona-tabiat ne'matlarini e'zozlash, turmushda matematik atama va geometrik figuralarning mohiyati, mehnatsevarlik ko'nikmalarini shakllantirish.

**Darsning ta'limiy vazifasi:** O'quvchilarni bozor munosabatlari sharoitida mustaqil va erkin fikrlash, og'zaki va yozma qo'shish, ayirish amallarini bajarishga o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni jadvalni ko'paytirish va bo'lishga doir amallarni bajarishga tayyorlash.


**Darsning borishi:** Noan'anaviy va yangi pedagogik texnologiyalar asosida suhbat tariqasida olib boriladi.

**Darsning uslubiy jixatlari:** 31 nafar o'quvchini 3 guruhga ajratish, guruhlarni nomlash: “Zukkolar”, “Chaqqonlar”, “Bilag'onlar” deb nomlash. “Klaster”, “Aqliy hujum” usullaridan foydalanish.

**Darslikdagi 57-misol.** Ushbu misolda biri 5 ta bir

bog'lam, ikkinchisi 3 bog'lam rediska rasmi berilgan. Unga

doir amallar quyidagicha:



$$5 + 3 = 8$$

$$8 - 5 = 3$$


$$8 - 3 = 5$$

Ikkinchi rasmda birinchi novdada 4 ta olma, ikkinchi novdada esa 2 ta olma tasvirlangan. Unga doir amallar bajariladi.

$$4 + 2 = 6$$

$$6 - 4 = 2$$

$$6 - 2 = 4$$



**58-misol.** Bu misolda ko'rsatilganidek, berilgan misollarni har bir guruhga bo'lib tarqatiladi. Shu berilgan misollarni qaysi guruh tez va to'g'ri yecha olsa, shu guruh o'quvchilari o'qituvchi tomonidan rag'batlantirib boriladi.

Zukkolar

Chaqqonlar

Bilag'onlar

1-topshiriq:

$$3 + 24 =$$

$$51 + 17 =$$

$$82 + 3 =$$

$26 + 32 =$

$32 + 8 =$

$31 + 9 =$

$35 + 12 =$

$32 + 16 =$

$40 + 18 =$

2-topshiriq:

$84 - 13 =$

$37 - 20 =$

$76 - 55 =$

$87 - 57 =$

$54 - 30 =$

$59 - 42 =$

$77 - 55 =$

$47 - 20 =$

$67 - 46 =$


Yuqoridagi misollarni har bir o'quvchi yechish bilan birga tekshirishni o'z vaqtida bajarib boriladi.

Yig'indini tekshirish uchun yig'indidan qo'shiluvchilarni birini ayiramiz. Ayirmani tekshirish uchun esa ayirmaga ayiriluvchini qo'shiladi.

Shu qoidalarga amal qilgan holda topshiriqni bajargan o'quvchi rag'batlantirib boriladi.


**59-masala.** Masalalarning savollari va yechimlari nimasi bilan farq qiladi?

1. Muxtor quyonlarga 12 ta sabzi, Karim esa 5 ta sabzi keltirib berdi. Bolalar quyonlarga hammasi bo'lib nechta sabzi keltirib berishdi?




$12 \text{ ta} + 5 \text{ ta} =$

2. Bolalar quyonlarga 17 ta sabzi keltirib berishdi. 7 ta sabzini darxol quyonlar yeb qo'yishdi. Nechta sabzi qoladi?




$$17 \text{ ta} - 7 \text{ ta} =$$

Bitta quyon rasmini doskaga ilib, yoniga 12 ta sabzi va yana alohida 5 ta sabzi rasmini ilib qo'yiladi va shu masalada rasmlardan foydalangan holda guruhlar ushbu masalada qo'shish va ayirish amallaridan foydalanib yechadilar. Bu masala amallar bo'yicha og'zaki usul bilan yechiladi.

$$12 + 5 = 17 \text{ ta}$$
 

Ikkinchisining farqi esa 17 ta sabzidan 7 ta sabzini quyonlar yeb qo'yadilar. Bunda o'zo'zidan

$$17 - 7 = 10 \text{ ta}$$
  qoladi.

Bolalar masalani mustaqil o'qiydilar va guruhlar o'z varoqlariga masalani yechib doskaga iladilar. Qaysi guruh oldin va to'g'ri bajarsa shu guruhga rag'bat kartochkalar beriladi.

$$12 + 5 = 17$$

$$17 - 7 = 10$$

$$17 - 5 = 12$$

$$10 + 7 = 17$$

**60-masala.** O'quvchilar bilan hayolan sayohatga chiqiladi. O'quvchilar u yerda nimalar kg bilan o'lchanishini har bir guruhga topshiriq beriladi.

Bolalar bozordagi maxsulotlarni aytadilar. Bunda ham o'quvchilar musobaqa tarzida aytadilar.

Zukkolar

Bilag'onlar

Chaqqonlar

Olma

Qand

Turp


Nok  
Behi

Go'sht  
Grunch

Piyoz  
Kartoshka


Guruhlarga aytilgan maxsulotlarni boshqa guruh takrorlamasligi aytib o'tiladi.

- 1)  
2 kg kam.



Shunday savol topingki, masala bitta amal bilan yechilsin.



- 2)  
3 kg ortiq.



Shunday savol topingki, masala ikki amal bilan yechilsin.

Guruhlar masalalar tuzadilar va o'z varoqlariga ishlab, yozadilar.

1-masala: Bor edi 12 kg olma, keltirishdi 2 kg kam nok. Necha kilogramm nok keltirishdi?






Olma – 12 kg  
Nok – ? 2 kg kam.  
 $12 - 2 = 10$  kg  
Javob: 10 kg nok.

Guruhlarning bittadan vakili doskaga varoqlarga ishlangan masalalarni olib chiqadi qaysi guruh to'g'ri ishlaganini o'qituvchi tekshirib chiqadi va to'g'ri javoblarini daftarlariga yozadilar.

**61-misol.** Mantiqiy topshiriq.

Har qaysi shaklda nechta uchburchak, nechta to'rtburchak bor? Barcha shakllarda hammasi bo'lib nechta uchburchak, nechta to'rtburchak bor?

61-masala sharti va rasm chiziladi.



O'quvchilarga aqlini charxlash uchun har bir guruhga shakllarni ko'rsatib savollar beriladi.

Zukkolar

1-tasvirda

nechta □ va

nechta σ bor?

Chaqqonlar

2-tasvida

nechta □ va

nechta σ bor?

Bilag'onlar

3-tasvirda

nechta □ va

Nechta σ bor?

To'g'ri javob bergan guruhga rag'bat katochkasi beriladi va har bir guruhga umumiy savol tashlanadi.

- Hammasi bo'lib nechta □ va σ bor.

To'g'ri javob bergan guruh o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Darsda faol qatnashgan guruhlar rag'btlantiriladi va kartochkalarini sanab chiqiladi. Yaxshi qatnashgan o'quvchilar alohida baholanadi.

62 va 63-misol va masalalar uyga vazifa qilib beriladi, tushuntiriladi, yo'nalish beriladi.

### 63-misol.

$$(37 - 7) + 4 = 34$$

$$(40 + 8) - 40 = 8$$

$$17 - (8 - 6) = 15$$

$$18 - (9 - 4) = 13$$

$$97 + 0 = 97$$

$$86 - 86 = 0$$

- bordan yo'q bo'lmaydi, yo'qdan bor bo'lmaydi...
- yigit kishiga 70 hunar oz.
- 1 mayizni 40 kishi bo'lib yegan.
- Yaxshi otga 1 qamchi yomon otga 1000 qamchi.
- 1 ni 1000 ga, 1000 ni tumanga...
- yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang 100 hayda.
- 7 o'lchab 1 kes.
- Sanamay 8 dema.
- 1 kessang 10 ni ek.

Yuqoridagi maqollardan dam olish daqiqalarida  
foydalanish mumkin.

2 ga 2 ni qo'shsak 4 bo'ladi,

6 ni qo'shsak 10 bo'ladi.

Kim 2 ga o'qisa,

Uning do'sti yo'q bo'ladi.



Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir fuqaro mustaqil fikrlashi shart. Zero matematika bozor munosabatlarini, tafakkurlarini insonda paydo qilish va rivojlantirishga yordam beradi. Guruhlarning savollarga bergan javobi quyidagicha baholab boriladi.

| <b>Savollar</b>   | <b>Zukkolar</b> | <b>Topqirlar</b> | <b>Chaqqonlar</b> |
|-------------------|-----------------|------------------|-------------------|
| <b>1 shart</b>    | <b>2</b>        | <b>2</b>         | <b>2</b>          |
| <b>2 shart</b>    | <b>3</b>        | <b>2</b>         | <b>3</b>          |
| <b>3 shart</b>    | <b>2</b>        | <b>3</b>         | <b>1</b>          |
| <b>4 shart</b>    | <b>5</b>        | <b>4</b>         | <b>3</b>          |
| <b>5 shart</b>    | <b>2</b>        | <b>1</b>         | <b>3</b>          |
| <b>Jami ball:</b> | <b>14</b>       | <b>12</b>        | <b>12</b>         |

**Foydalanish uchun testlar.**

- 36 dan 14 ning ayirmasi nechiga teng?  
a) 14    b) 22    c) 33
- 47 ga 16 ni qo'shsak yig'indi nechiga teng bo'ladi?  
a) 60    b) 75    c) 63
- Berilgan ifodani amal tartibi bilan yeching.

$$30 + (20 - 20)$$

a)  $30 - 20$                       b)  $20 - 20 + 30$     c)  $30 + 0$ .

4. To'g'ri to'rtburchakni toping.

A) 3                      b) 5                      c) 2

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. 2-sinf matematika darsligi. Mualliflar N.V.Bikbayeva, E.Yangibayeva. 2004 yil.

2. Ro'znomalar. 2002-2005 yil sonlari.
3. Boshlang'ich ta'lim jurnallari. 2002-2005 yil sonlari.



